# OLIY TA'LIM TIZIMIDA SIFAT MENEJMENTINI JORIY QILISHNI TAKOMILASHTIRISH

**Bazarova Mamlakat Supiyevna**
*Osiyo xalqaro universiteti katta o'qituvchisi*

***Annotatsiya**: Bugungi kunda oliy o 'quv yurtlaridagi sifat menejmenti tizimining tuzilishi va mazmunini aniqlash va uni ta'minlash bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishiga ta'sir qiluvchi yana bir muhim omil bu muammoning global tabiati va uni hal qilish yondashuvlaridagi dunyodagi umumiy tendensiyalardir.*

***Kalit sozlar:** ta'lim sifati, ta'lim raqobatbardoshligi, universitet raqobatbardoshligi, ta'limn sifatini baholash, ta'lim sifat menejmenti tizimi, ta'lim sifat menejmenti dolzarbligi, sifat menejmenti, xorijiy tajriba.*

***Abstract:** Today, another important factor affecting decision-making related to determining the structure and content of the quality management system in higher education institutions and its maintenance is the global nature of the problem and the general trends in the world in approaches to solving it. In this regard, this article discusses the development of the education quality management system in universities*

***Key words:** quality of education, competitiveness of education, university competitiveness, assessment of quality of education, quality management system of education, relevance of quality management of education, quality management, foreign experience.*

***Ключевые слова**: качество образования, конкурентоспособность образования, конкурентоспособность вуза, оценка качества образования, система управления качеством образования, актуальность управления качеством образования, управление качеством, зарубежный опыт.*

Ma'lumki, XXI asr oliy ta'limi bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi va ta'lim mazmuni va tashkil etilishida muayyan o'zgarishlarni talab qiladi. Oliy ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni rag'batlantiruvchi ob'ektiv mavjud omillardan biri bu tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan axborot oqimidir. Zamonaviy postindustriya jamiyati doimiy o'zgarib turadigan turmush sharoitlariga tezda moslasha oladigan fuqaro va mutaxassislarga manfaatdordir. Bunday sharoitda ta'lim yoshlarni umr bo'yi bilim olishga o'rgatish, ularga har qanday sohada bilim olish uslubiyotini o'rgatishga qaratilgan bo'lishi kerak. Oliy o'quv yurtlari faoliyatida kuzatilayotgan o'zgarishlar turlicha bo'lishi mumkin, jumladan, ta'limning yangi texnologiyalari, o'qitish usullari, o'quv jarayonini tashkil etish, boshqarish va texnikaviy xizmat ko'rsatishni qo'llab-quvvatlash, bular esa, oliy o'quv yurtlari boshqaruv tizimidan yuqori moslashuvchanlik va harakatchanlikni talab qiladi.

Respublikamizda ham ta'lim sifatini oshirish, uning imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, davlat ta'lim siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.Bugungi kunda oliy o'quv yurtlaridagi sifat menejmenti tizimining tuzilishi va mazmunini aniqlash va uni ta'minlash bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishiga ta'sir qiluvchi yana bir muhim omil bu muammoning global tabiati va uni hal qilish yondashuvlaridagi dunyodagi umumiy tendensiyalardir. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ham ta'lim tizimini jahon standartlariga javob beradigan darajaga olib chiqishni nazarda tutadi1. Ushbu muammoni hal qilish ta'lim sifatini baholash va boshqarish tizimlarini yaratish bo'yicha xorijiy tajribani batafsil o'rganish va tahlil qilishni talab qiladi, bu esa o'zaro tan olingan baholash tizimlarini joriy etish orqali taqqoslanadigan ta'lim sifatiga erishish orqali Respublikamizni yagona Yevropa ta'lim makoniga yaqinlashtirish va birlashtirish imkoniyatini beradi.Oliy ta'lim muassasasini rivojlantirish strategiyasi - bu "tashkilot samaradorligini ta'minlaydigan barcha qonuniyatlarni, tashqi va ichki sharoitlarni, maqsad va vazifalarni har tomonlama o'rganishga asoslangan tizimli harakatlar va ularni amalda amalga oshirishning keng qamrovli, uzoq muddatli rejasi". Yuqoridagi tahlillarga asosan shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida turli xil rivojlanish strategiyalari yoki ularning kombinatsiyalaridan foydalanish mumkin. Oliy ta'limni muassasalarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda ta'lim va bozor munosabatlarining maqbul kombinatsiyasini hisobga olish kerak. Zamon bilan hamnafas bo'lishga intilayotgan OTM o'z oldiga ulkan maqsadlarni qo'yishi va ularni izchil amalga oshirishi, shu bilan birga, fan va texnika taraqqiyoti darajasiga mos keladigan zamonaviy moddiy-texnika bazasini hamda talabalarning ilg'or yo'nalishdagi qobiliyatini rivojlantirish uchun maqbul shart-sharoitlami yaratishi zarur. Maqolada analiz, sintez, analogiya, umumlashtirish kabi umumiy ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan hamda oliy o'quv yurtlariga nisbatan tashkilotlarning rivojlanish strategiyalarining mavjud tasniflarini qo'llash imkoniyatlarini baholangan .Oliy ta'lim muassasasini rivojlantirish strategiyasining uslubiy asoslarini tahlil qilish usullari, OTM rivojlantirish strategiyasini tashkil etish bo'yicha ishchi dasturlar va qo'llanmalar, zamonaviy veb-vositalardan OTMni rivojlantirish samaradorligini oshirish vositalaridan biri sifatida foydalanish bo'yicha pedagogik tajribani umumlashtirish, ushbu tadqiqot muammosi bo'yicha o'qituvchilar bilan suhbatlar usullari ham qo'llanildi.Ta'lim sifatini tahlil qilishda sifat nazoratining bir qator usullaridan foydalanish mumkin. Amaliyotda sifat nazorati usullari ishlab chiqarishga tatbiq etilgan bo'lib, ta'lim jarayonida ushbu usullar kamdan-kam hollarda qo'llaniladi. Ishlab chiqarish korxonalariga tatbiq etilgan sifat nazorati usullaridan ta'lim tizimida foydalanish masalalari quyida ko'rib chiqiladi.Sifat nazoratining mashhur usullaridan biri Isikava usulidir. Isikava diagrammasi 5M ga asoslanadi. 5M quyidagicha tavsiflanadi:

1. Man (inson) - inson omili bilan bog'liq omillar.

2. Machines (jihozlar) - mashina va jihozlar bilan bog'liq omillar.
3. Materials (materiallar) - materiallar bilan bog'liq omillar.
4. Methods (usullar) - jarayonlarni tashkil qilish usullari.
5. Measurements (o'lchovlar) - o'lchov bilan bog'liq omillar.

Yuqoridagi 5 ta omil Isikava chizmasining asosi bo'lib, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatiga ta'sir qilayotgan omillar chizmasini Isikava usulida ko ' rsatish mumkin4.

Isikava sxemasidan ko'rinadiki, 5 ta sabab bo'yicha ta'lim sifatiga eng ko'p ta'sir etuvchi omillardan biri inson omili bo'lib, u ta'lim sifatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Qolgan omillar inson omili vositasida ta'lim jarayonlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qolgan omillar ichida usullar ham ta'lim sifatiga tashkillash jihatidan sezilarli darajada ta'sir etadi.Sifat menejmentining yuqoridagi yo'nalishlaridan birini tanlashda ta'lim muassasasining quyidagi sharoitlari e'tiborga olinishi lozim:

- sifat menejmentining tashkil etilganlik darajasi;
- kadrlar ta'minoti;
- ta'lim jarayonining holati;
- o'quv jarayonining hujjatlar bilan ta'minlanganlik darajasi;
- moliyaviy ta'minotning mavjudligi va sh.k.

Ta'lim sifatini yanada oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarga ahamiyat berish zarur:

- o'quv auditoriyalarini zamonaviy o'qitish jihozlari bilan to'liq ta'minlashga erishish;
- elektron kutubxonadagi o'rinlar sonini ko'paytirish;
- talabalarning mustaqil ta'lim olishlari uchun uslubiy ko'rsatmalar va auditoriyadan tashqari vaqtlarini samarali o'tkazishga erishish;
- darslarning to'liq yangi pedagogik texnologiyalar va texnikaviy jihozlar asosida o'tilishini ta'minlash.

Ta'limga sifat menejmentini tatbiq etish natijasida quyidagi samaralarga erishish mumkin:

- o'quv jarayonidagi boshqaruv tuzilmasi modernizatsiyalashgan ko'rinishga yaqinlashadi;
- o'quv jarayonida yuritiladigan hujjatlar soddalashadi va optimallashadi;
- yetishtirilayotgan kadrlar o'rtasida sog'lom raqobat muhiti takomillashadi;
- yetishtirilayotgan kadrlarning jahon miqyosidagi raqobatbardoshligi ortadi;
- ishlab chiqarish va ta'lim o'rtasidagi integratsiya kuchayadi;
- ilmiy tadqiqot natijalarining samaradorligi ortadi6.

Ta'lim sifatini ta'minlashga yondashuvni qayta ko'rib chiqib, ta'lim muassasalari o'z tashkilotlarida sifat menejmenti tizimini ishlab chiqib, joriy qilmoqdalar, ya'ni ISO 9001 xalqaro standarti asosida sifat menejmenti tizimini yaratishni ta'minlaydilar7.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Supiyevna, B. M. (2025). G'AZNACHILIK-DAVLAT MOLIYASINING ENG MUHIM BO'LAGI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(5), 117-123.

2. Supiyevna, B. M. (2025). BUDGETING IN THE PUBLIC SECTOR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(6), 90-95.

3. Supiyevna, B. M. (2025). PRINCIPLES OF TAXATION. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(6), 111-116.

4. Supiyevna, B. M. (2025). THE US TAXES ON INCOME. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(7), 221-226.

5. Supiyevna, B. M. (2025). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA «G 'AZNACHILIKNI JORIY ETISH» KONSEPSIYASINING YARATILISHI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(6), 49-54.

6. Supiyevna, B. M. (2025). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT MOLIYASI TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(4), 44-50.

7. Supiyevna, B. M. (2025). O'zbekistonda Davlat Moliyasi Faoliyatining Huquqiy Asoslari. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(4), 94-101.

8. Umedova, N., & Bazarova, M. S. (2025). OZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. *Modern Science and Research*, *4*(2), 362-370.

9. Supiyevna, B. M. (2025). O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR O 'SISHINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(5), 142-151.

10. Supiyevna, B. M. (2025). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(7), 315-322.

11. Supiyevna, B. M. (2025). INSON SALOHIYATINI MEHNAT POTENSIALI RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(6), 197-204.

12. Bazarova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION. *Modern Science and Research*, *2*(12), 506-512.

13. Бобоев, А. Ч., & Базарова, М. С. (2019). Хорижий инвестицияларнинг жозибадорлигини ошириш. *Интернаука*, (22-3), 88-90.

14. Bazarova, M. S., & Khudaiberdiyeva, O. Q. (2022). IMPROVEMENT OF THE MECHANISM OF INNOVATIVE MANAGEMENT OF FOOD INDUSTRY ENTERPRISES. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 464-467).

15. Supievna, B. M., & Firuza, S. (2023). Strategic ways of implementing personnel policy in commercial banks. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, *1*(7), 22-25.

16. Supiyevna, B. M. (2024). DISTINCTIVE FEATURES OF PERSONAL MANAGEMENT IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS. *Gospodarka i Innowacje.*, *47*, 134-139.

17. Supievna, B. M. (2023). USING EFFECTIVE WAYS OF CONDUCTING MARKETING RESEARCH IN INTERNATIONAL COMPANIES. *Gospodarka i Innowacje.*, *41*, 79-83.

18. Supievna, B. M. (2023). MARKETING MANAGEMENT STRATEGY'S IMPORTANCE AND MODERN CONCEPT. *Gospodarka i Innowacje.*, *42*, 381-386.

19. Supiyevna, B. M. (2022). Innovatsion iqtisodiyotda inson kapitalini boshqarish tizimini takomillashtirish.

20. Bazarova, M. S., & Shahboz, K. (2022). Ways to increase the efficiency of available tourist facilities in Uzbekistan. *Scientific approach to the modern education system*, *1*(10), 16-18.

21. Qudratova, G. M. (2025). THE EVALUATION OF UNIVERSITY COMPETITIVENESS: A REVIEW OF METHODOLOGIES. *SHOKH LIBRARY*.

22. Husenov, A., & *Qudratova, G. (2025). RAQOBAT VA RAQOBAT STRATEGIYALARI: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR. Modern Science and Research, 4(2), 292-299.*

23. Sodiqova, N. (2025). METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS'TECHNICAL THINKING IN ECONOMICS CLASSES. *International Journal of Artificial Intelligence*, *1*(1), 885-891.

24. Islomova, M., & Sodiqova, N. (2025). ILM-FAN VA TA'LIMDAGI INNOVATION RIVOJLANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI. *Modern Science and Research*, *4*(2), 300-307.

25. Bahodirovich, X. B., & To’rayevna, S. N. (2025). LOMBARD TASHKILOTLARI VA ULARNING XIZMATLARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(3), 290-298.

26. Bahodirovich, X. B. (2025). XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB YURITISH SIYOSATI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(6), 210-215.

27. Ёкубов, А. Б., & Алимова, Ш. А. (2024). МАКРОЭКОНОМИКА: ЭВОЛЮЦИЯ ТЕОРИИ И СОВРЕМЕННОЙ ПРАКТИКИ.

28. Abidovna, A. S. (2025). INVESTMENT PROJECTS: ADVANCED MANAGEMENT AND EVALUATION. *SHOKH LIBRARY*.

29. Hakimovich, T. M. (2025). EKSPORT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(4), 112-121.

30. Hakimovich, T. M. (2025). O 'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG 'BATLANTIRISH UCHUN FOYDALANILADIGAN MOLIYAVIY VOSITALAR TAHLILI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(5), 141-150.

31. Ibodulloyevich, I. E. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, *51*, 258-266.

32. EI, I. (2025). MINTAQALAR VA MA'MURIY HUDUDLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI INVESTITSIYA BILAN TA'MINLOVCHI IQTISODIY TIZIM SIFATIDA. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(6), 58-69.

33. Azimov, B. F., & Yodgorova, Z. Y. (2025). METHODS OF STUDYING THE STATE OF COMPETITION IN THE EDUCATIONAL SERVICES MARKET. *SHOKH LIBRARY*.

34. Azimov, B. F. (2025). INNOVATSIYALARNI QO 'LLAB-QUVVATLASH XIZMATLARI: ISPANIYA, POLSHA VA BOLGARIYA TAJRIBALARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(4), 12-23.

35. Raxmonqulova, N. O. (2025). DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY ON A GLOBAL SCALE AND THE EXPERIENCE OF COUNTRIES. *SHOKH LIBRARY*.

36. Қизи Рахмонқулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ҲУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ.". *Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал*, *6*, 14.

37. Shadiyev, A. X. (2025). DEVELOPMENT OF THE CURRICULUM FOR ECONOMIC DISCIPLINES IN PRIVATE UNIVERSITIES. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, *13*(1), 389-396.

38. Shadiyev, A. X. (2025). METHODS OF TEACHING THE "ECONOMIC THEORY". *SHOKH LIBRARY*.

39. Zaripova, G., & Naimova, N. (2025). INFLYATSIYA VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI. *Modern Science and Research*, *4*(2), 371-378.

40. Akbarovna, N. N. (2025). PROBLEMS OF INCREASING INVESTMENT ACTIVITY IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION. *SHOKH LIBRARY*.

41. Jumayeva, Z. (2023). BASICS OF NATIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, *2*(12), 296-300.

42. Bostonovna, D. Z. (2023). CONCEPTUAL BASIS OF IMPROVEMENT OF BANK AUDIT IN COMMERCIAL BANKS. *IMRAS*, *6*(6), 118-124.

43. Tagayeva, R., & Bobojonova, M. J. (2025). BYUDJET, UNING SHAKLLANISHI VA TAQSIMLANISHI. *Modern Science and Research*, *4*(2), 387-393.

44. Bobojonova, M. J., & Toshev, M. H. (2025). JAHON BOZORIDA YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIYALASHTIRISH TENDENSIYASI: FAKTLAR VA KO ‘RSATKICHLAR ASOSIDA TAHLIL. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(4), 120-128.

45. Жумаева, З. К. (2024). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ ИНДУСТРИЙ КАК ФАКТОР РОСТА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: ОБЗОР ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.

46. Жумаева, З. К. (2024). Инвестиционная Активность Как Основной Элемент Организационно-Экономического Механизма Маркетинга Территории. *Miasto Przyszłości*, *55*, 1411-1417.

47. Ibragimov, A. (2025). PROSPECTIVE WAYS OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT TO THE NATIONAL ECONOMY. *International Journal of Artificial Intelligence*, *1*(1), 137-143.

48. Qahhorova, J., & Ibragimov, A. (2025). XORIJIY INVESTITSIYALAR AHAMIYATI, OMILLARI VA ISTIQBOLLARI. *Modern Science and Research*, *4*(2), 283-291.

49. Алимова, Ш. А., & Джураева, М. С. (2025). ИНВЕСТИЦИОННЫЕ ПРОЕКТЫ: УПРАВЛЕНИЕ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(4), 81-87.

50. Игамова, Ш. З. (2024). МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИОННОГО развития ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ. *Gospodarka i Innowacje.*, *43*, 335-340.

51. Baxtiyorova, J., & Djurayeva, M. S. (2025). BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA RAQOBATNING ROLI. *Modern Science and Research*, *4*(2), 477-485.